

# AN'ANAVIY XONANDALIK KURSLARIDA MAQOM ASHULALARINI O'RGATISH JARAYONLARIDA MILLIY MUMTOZ MUSIQA MEROSIMIZNING O'RNI.

Rahimjon Hasanov

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqola an'anaviy xonandalik kurslarida maqom ashulalarini o'rgatish jarayonida milliy mumtoz musiqa merosining ahamiyati va uning o'quvchilarning musiqiy estetik didini shakllantirishdagi o'rnnini tahlil qiladi. Unda O'zbekistonning boy maqom san'ati an'analari, ular asosida xonandalik mahoratini rivojlantirishning ko'pyillik tajribaga tayangan holda muhokama qilindi.

**Kalit so 'zlar:** Mumtoz musiqa, maqom, Shashmaqom, an'anaviy xonandalik, ustoz -shogird an'analari, tajriba.

Maqomlar O'rta Osiyo musiqiy madaniyatining yuksak namunasi bo'lib, xalqning estetik didi, ma'naviyati va madaniyati shakllanishida asosiy o'rinn tutadi. Ushbu meros avlodlar o'rtasida bog'lanishni ta'minlab, ularning musiqiy dunyoqarashini boyitadi. Maqom ashulalarini o'rgatish jarayonlari nafaqat musiqiy mahoratni oshirish, balki milliy qadriyatlar va madaniyatga hurmatni shakllantirish nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Mumtoz musiqa asarlarining badiiy kuchi – ularning xalq orzu – umidlari, his – tuyg'ulari, fazilarlari, ruhini, dardini o'ziga aks ettirishida tinglovchilarga ham birday yoqimli so'z ohang, soz va kuy mushtarakligidadir. Mumtoz ashula yo'llari va cholg'u kuylarining umrboqiyligi ulardagi ma'naviy – ahloqiy ma'noning chuqurligi, musiqiy ohanglarning go'zalligidadir

Bugungi kunda milliy mumtoz musiqaning nafaqat ijrochilik, balki ma'naviy va madaniy tarbiya vositasi sifatidagi o'rni yoritilgani, xususan, maqom ashulalarini o'rgatish orqali yosh xonandalarga nafosat, badiiy uslub va ijodiy izlanish ruhini singdirish imkoniyatlarining yaratilishi yuksak e'tibor natijasidir.

Maqom ashulalarini o'qitishda qo'llaniladigan amaliy va nazariy yondashuvlarning zamonaviy talim jarayoniga moslashtirilishi bugunning talabidir.

Uzoq yillar davomida milliy mumtoz musiqa merosimizning boy hazinalaridan namunalarni yosh avlod vakillariga o'rgatib kelar ekanman shuni anglab yettimki, yoshlar albatta maqom ashulalarimiz hususan Shashmaqom turkumiga kiruvchi musiqiy asarlarimizni bilishlari ma'naviy yetuklikka yetaklaydi.

Zamonaviy olamda milliy musiqa san'ati bo'yicha faoliyat olib borayotgan pedagoglar, tadqiqotchilar va ijrochilar uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, maqom ashulalarini



o'rgatishda yangicha yondashuvlarni taklif etishmoqda bu quvonarli albatta lekin, Shu bilan birga, milliy mumtoz musiqa merosini asl xolicha asrab-avaylash va keyingi avlodlarga yetkazish mas'uliyatini ta'kidlaydi.

Maqom ashulalari O'zbekistonning boy madaniy merosi va mumtoz san'ati bo'lib, yoshlar tarbiyasida nafaqat estetik didni shakllantirish, balki ularning ma'naviy-axloqiy rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi.

O'zbekistonning boy madaniy merosi ichida milliy mumtoz musiqa alohida o'rinni egallaydi. Ushbu meros xalqimizning ko'p asrlik tarixini, madaniyatini va an'analarini aks ettiradi. Xususan, maqom ashulalari milliy musiqa madaniyatimizning eng yuksak namunalari sifatida e'tirof etiladi.

Bugungi kunda an'anaviy xonandalik kurslarida maqom ashulalarini o'rgatish nafaqat musiqiy mahoratni oshirish, balki yosh avlodda milliy o'zlikni, madaniy merosga hurmatni tarbiyalash vazifalarini ham o'z ichiga oladi. O'quvchilarga mumtoz musiqani o'rgatishda yoshlarning avvalo o'z qiziqishlaridan kelib chiqishi lozim deb bilamiz, chunki, o'qituvchi o'quvchilarning ijro imkoniyatlarini inobatga olib asar tanlaydi.

O'quvchining o'z qiziqishiga mos asar tanlashda bevosita ishtirok etganda ijro etiladigan o'rganiladigan uning xotirasida yaxshi qoladi. Xotira bu o'ziga xos musiqiy asarlaning o'quvchi miyasida joylashgan zahira ombori hisoblanadi. Zahiradagi asarlarning o'rganish sifati va soni qanchalik ko'p bo'lsa kelajakda hech qiyalmasdan undan foydalanishi imkoniyatiga ega bo'ladi.

Maqom ashulalari Sharq musiqa madaniyatining durdonalari bo'lib, ularning har biri o'ziga xos falsafiy mazmun, estetik go'zallik va chuqur ma'naviy qiymatga ega. Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari milliy musiqa madaniyatimizning turli hududiy va tarixiy qirralarini yoritib beradi. Mazkur maqomlar asrlar davomida og'zaki ijrochilik orqali avloddan-avlodga yetkazilib, bugungi kunda yozma va amaliy ravishda o'rganilmoqda. An'anaviy xonandalik kurslari milliy musiqa madaniyatimizni saqlab qolish va rivojlanishda muhim o'rinn tutadi. Ushbu kurslarda maqom ashulalari maxsus uslub va metodlar asosida o'rgatiladi. Bu jarayon quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Biz ustozlar milliy maqom ashulalarimizni o'rgatar ekanmiz, avvalo maqomlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi, uning buyuk ijodkorlari haqida ma'lumot berib, o'quvchilarda tarixiy ongni rivojlantrib borishimiz shart. Bundan tashqari ashula yo'llarini kuylash, ohanglar va maqomning ijro uslublarini o'rganish musiqiy malakani yanada shakllantirishini hisobga olib qo'yishimiz joiz.

Maqomlarning tarkibi, uning turli bo'g'lnlari va kuylarning tuzilishini nazariy o'rganish musiqa bilimini chuqurlashtiradi. Milliy mumtoz musiqa merosining tarbiyaviy ahamiyati shundaki maqom ashulalarini o'rgatish jarayonida yosh avlod milliy an'analar,





musiqiy tafakkur va badiiy didga ega bo'ladi. Bu jarayon nafaqat musiqiy qobiliyatni rivojlantiradi, balki, milliy o'zlikni shakllantirishga, madaniyatga hurmat hissini uyg'otishga va eng asosiysi yoshlarni ma'naviy barkamollikka yetaklash kabi maqsadlarga xizmat qiladi.

Maqom ashulalarini o'rgatishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish jarayonni yanada samarali qiladi. Audiovizual materiallar, interaktiv darslar va raqamli platformalar orqali maqom ashulalarini o'rganish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa o'quvchilarning qiziqishini oshirish bilan birga ularning musiqiy bilimlarini yanada chuqurlashtiradi. An'anaviy xonandalik kurslarida maqom ashulalarini o'rgatish jarayonida milliy mumtoz musiqa merosimizning ahamiyati beqiyosdir. Ushbu jarayon orqali yosh avlod nafaqat musiqiy mahoratni egallaydi, balki o'z milliy merosiga hurmat bilan qarashni, uni asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazishni o'rganadi. Shunday ekan, milliy madaniyatimizning ajralmas qismi bo'lgan maqom ashulalarini o'rgatish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Milliy o'zlikni anglash va madaniy merosga hurmatni shakllantirish uchun maqom ashulalari yoshlar uchun milliy san'atni, tarixni va madaniyatni anglash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Madaniy merosga hurmat tushunchasini talabalarga singdirish yosh avlodni maqom ashulalari orqali tarbiyalash ularni milliy qadriyatlarni qadrlashga o'rgatadi va tarixiy ildizlariga yaqinlashtiradi. Maqom ashulalarining ko'pchilik matnlari axloqiy-ta'limiylar mazmunga ega bo'lib, insoniy fazilatlar, vatanparvarlik, muhabbat va do'stlik kabi qadriyatlarni targ'ib qiladi.

Maqom ashulalarini o'rganish sabr, e'tibor va intizomni talab qiladi, bu esa yoshlarning o'z-o'zini boshqarish va maqsad sari intilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Maqom ashulalarining ritmik va melodik tuzilishini tushunish yoshlarning musiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Maqom ashulalari yoshlar tarbiyasida milliy o'zlikni anglash, ma'naviy va estetik tarbiya, ichki intizom, jamoaviylik va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda muhim o'rinn tutadi. Bu san'at turlarini yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish orqali ularning madaniy ongini yuksaltirish va mustahkam ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga erishiladi.

Maqom ashulalarini o'rgatish nafaqat ta'lim jarayonining bir qismi, balki milliy madaniyatni asrab-avaylash vositasidir. Ushbu jarayon quyidagi yo'naliishlarni o'z ichiga oladi:

- Maqomlar orqali qadimiy musiqa merosini zamonaviy yosh avlodga yetkazish mumkin. Bu jarayon yoshlarni ajdodlar tajribasi bilan boyitadi.
- Maqom ashulalarini yosh musiqachilar tomonidan ijro etilishi ularni xalq orasida keng tarqatishga va madaniy merosning yashovchanligini ta'minlashga imkon beradi.



- Maqomlarni raqamli formatlarda saqlash, onlayn platformalarda tarqatish orqali milliy musiqa merosimizni keng ommaga yetkazish mumkin.

Maqom ashulalari O'zbekistonning boy musiqa merosining ajralmas qismidir. Ularni ta'lif jarayonida o'rgatish milliy qadriyatlarni saqlash va targ'ib qilishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, maqomlar ijrochiligi yosh avlodni estetik va ma'naviy jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi.

Mazkur merosni chuqur o'rganish va rivojlantirish orqali xalqimizning madaniy boyligini yanada yuksaltirish imkoniyati yaratiladi.

Milliy mumtoz musiqa merosimiz namunalarini o'rgatish jarayonlarida ustoz va shogird o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, o'rgatish jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishida, albatta, katta rol o'ynaydi. An'anaviy maqom ashulalarni o'rgatish usullari bilan zamonaviy metodlarni uyg'unlashtirish, cholg'u musiqasini avloddan-avlodga samarali ravishda uzatishga yordam beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. MUSIQA SOHASIDA BO 'LAJAK MUTAHASISLARNI YETUK KADR ETIB TARBIYALASHDA QADRYATLAR VA MILLIY AN'ANALARGA TAYANIB TA'LIM BERISHNING IJOBIY JIHATLARI M Akbarova, G Azamkulov, E Babamurodov - SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR ..., 2024

2. Akbarova Mohigul Gulomovna. (2024). AN'NAVIY HONANDALIK TA'LIM JARAYONLARIDA MAQOM IJROCHILIGINI O'RGATISHDA "USTOZ-SHOGIRD" AN'ANALARI. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 67(3), 24-29. <https://scientific-jl.org/new/article/view/7197>

3. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION Volume 2, Issue 5, Part 3 May 2023 www.in-academy.uz AN'ANAVIY XONANDALIK DARSALARIDA MUMTOZ MUSIQA AN'ANALARINI O'QUVCHILARGA O'RGATISH. Hamroyeva Dildora Jo'raqulovna. Samandarovna Mavluda Abduvosiyevna

